

**PRINSIP – TUTUM, MAHKAM TUTGUM; TAMOYIL – OG‘ISHGA
MOYIL**

(O‘zbek nutqida tamoyil so‘zining noto‘g‘ri qo‘llanishi xususida)

Daniyarov Baxtiyor Xudayberdiyevich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori

filologiya fanlari doktori (Dsc)

e-mail: bxdanियarov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada so‘z ustalarining so‘z qo‘llash mahorati, leksik o‘zlashmalarning to‘g‘ri yozuvi va talaffuzi, so‘zlarning semantik tuzilishi ko‘p aspektli kompleks tahlil qilinib, so‘zning leksik-semantik ma‘nosi uni o‘rab turgan leksik qurshov va kontekst semantikasiga ham bog‘liqligi asoslandi. Ўзбек нутқида русча тенденция сўзининг маъносини англатиб келган арабча тамойил сўзини принцип ўрнида қўллаш илмий асосга эга эмаслиги аниқ далил, исбот фактлар билан очиқ берилган.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, leksik o‘zlashmalar, leksik qurshov va kontekst semantikasi, tendensiyaning o‘zbekchasi tamoyil, prinsip - tutum.

**PRINCIPLE IS TUTUM, TO WHICH I HOLD FAST; TENDENCY IS
PRONE TO DEVIATION**

(On the Erroneous Use of the Word “Tamoyil” in Uzbek Speech)

Baxtiyor Kh. Daniyarov

Professor at Tashkent University of

Economics and Pedagogy

Doctor of Science (D.Sc.) in Philology

Abstract. The author of this article has developed a comprehensive method for studying the semantic structure and functionality of lexical synonyms of the summarized mechanism based on simultaneous settings of the Russian and Uzbek languages.

Key words: complex research methodology, semantic structure and functional properties of lexical monuments, monetary resources and connotative meaning, trend in Uzbek is tamoyil, principle in Uzbek is tutum. Based on clear arguments, proofs, and facts, the article demonstrates the scientific invalidity of using the Arabic loanword “tamoyil” as an equivalent for the term “principle,” given that in Uzbek speech, its actual meaning corresponds to the Russian word “tendentsiya” (tendency/trend).

Kirish (Introduction). Soʻzning leksik-semantik tuzilishida yangi komponentlarning (maʼno nozikliklari, farqlovchi xususiyatlar, ottenkalar) paydo boʻlishida soʻz ustalari, oʻz tilining fidoyi jonkuyarlari, xususan, ziyolilar, adiblar, jurnalistlar va, ayniqsa, qalam ahlining nozik taʼb, sof koʻngil va qaynoq qalb namoyondalari hissasi va oʻrnining ahamiyati beqiyosdir. Tabiatan haqiqiy isteʼdod sohiblari boʻlgan bu insonlar ona tilining tabiati va oʻziga xos xususiyatlarini ich-ichdan (intuitiv) his qilib, anglagan holda borliqni soʻzlar vositasida aniq ifodalab berishga intiladilar va soʻzlarning maʼno strukturasida yangi noyob semalarning shakllanish jarayoniga oʻzlarining ijodiy faoliyatlari bilan sermahsul hissa qoʻshadilar [1, 91-105].

Albatta, mazkur sohadagi har bir inson eng avvalo, xalqimizning boy madaniy va maʼnaviy merosini tiklash, uning oʻz munosib oʻrnini topishi, jamoatchilik oldida qadrlanishini taʼminlashga xizmat qilayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Biroq bu boradagi amalga oshirilishi zarur boʻlgan ishlar hali talaygina. Jumladan, koʻp hollarda rus tili orqali tilimizga kirib kelgan soʻzlarning orfografiyasi va orfoepiyasida bir qancha muammolar koʻzga tashlanib qolmoqda. Oʻzlashma soʻzlarning ijobiy tomonlarini inkor etmagan holda, shuni taʼkidlash lozimki, til qonuniyatlariga koʻra, bir tildan boshqa tilga oʻtayotgan soʻz oʻzlashtirayotgan tilning qonun-qoidalariga, jumladan, imlo va talaffuz qoidalariga toʻliq moslashib ketsagina oʻzlashgan soʻz hisoblanadi. Ammo sobiq mustabid tuzumning til siyosatiga koʻra, rus tili orqali oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar gʻayriilmiy tarzda boʻlsa-

da, rus tilining qonun-qoidalariga asosan yozilar va orfoepik me'yorlari asosida talaffuz qilinadi. Chunki o'sha davrda mustabid sovet tuzumi mafkurasining ruslashtirish siyosatini tezlashtirish uchun joriy qilingan qoidasiga ko'ra har qanday rus tilidan o'zlashgan so'zlar, ilmiylikka zid bo'lsa ham, rus orfografiyasi va orfoepiyasi qoidalariga asosan rus tilida qanday yozilsa shunday yozilishi, rus tilida qanday aytilsa shunday aytilishi lozim edi. Masalan, Rossiya so'zi Rossiya ko'rinishida yozilib, Rassiya deb aytilishi, konferensiya atamasi konferensiya shaklida yozilib, kanfirensiya deb talaffuz qilinishi, Lomonosov, Mendeleyev kabi ruscha familiyalar o'zbek tilida xuddi ruslardagi kabi shu tarzda yozilib, Lamanosov, Mindileyiv deb aytilishi o'zbek tili uchun norma qilib belgilangan edi.

Bugun oldimizda hech qanday g'ayriilmiy majburiyatlar yo'q. Shunga qaramay, media makonda, jumladan ijtimoiy tarmoqlarda ayrim holatlarda rus tilidan o'zlashgan baynalminal so'z va atamalarni o'zbekcha so'zlar bilan almashtirish maqsadida ushbu so'zlar ma'nodoshlarining semantik tuzilishini, ma'no va ma'no noziklarini yetarlicha o'rganmagan holda, bilib-bilmay so'z qo'llash qoidalarining tutum (prinsip) va usullariga zid ravishda, bir so'zning ma'nosi boshqasiga mos bo'lmasada, ushbu so'zlarning ba'zi hollarda noto'g'ri qo'llanilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, prinsip so'zi o'rnida tamoyil so'zining qo'llanilishini asosli deb bo'lmaydi. Prinsip atamasining o'zbekchasi tamoyil emas. Tamoyil arab tilidan o'zbek tiliga bir necha asr avval o'zlashgan bo'lib (*dastlab, mayl, tebranish, o'zgarish, yo'nalish* ma'nolarini anglatgan), rus tilidan o'zbek tiliga o'tgan asrda o'zlashgan tendensiya so'zining ma'nosini anglatib kelgan.

Hatto sobiq sovet tuzumida, masalan, 1959 yilda Moskva shahrida nashr etilgan (Bosh muharrir professor A.K.Borovkov) hamda 1988 yilda Toshkentda chop etilgan "O'zbekcha – ruscha lug'at"larda (qisqacha: O'RL)larda tamoyil so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

“ТАМОЙИЛ. Книж. склонность, уклон; направление, тенденция.” [7, 417]. Ko'rinadiki, tamoyil so'zi ushbu lug'atlarda aynan tendensiya ma'nosini anglatadi.

Tamoyil so'zi 2006-2008 yillarda chop etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da kitobiy so'z sifatida quyidagicha: «ТАМОЙИЛ 1 Mayl. Moyillik, tadrijiy yo'nalish (ta'kid

bizniki – B.D.), deb izohlangan va misollar bilan dalillangan: 1 Vahshiy xalqlarda qonxo‘rlikka tamoyil zo‘r bo‘ladi. Bu – shubhasiz haqiqat! Oybek, Tanlangan asarlar. 2 ..bozorlarimizda o‘sha azaliy udumlarimizni, tamoyillarimizni tiklash, bozorni milliy qadriyatlarimizning ko‘zgusi sifatida namoyon qilish lozim. Gazetadan» [8, 655]. Tendensiya so‘zi esa o‘zbek tilining mazkur besh tomli lug‘atida quyidagicha izohlangan:

«TENDENSIYA 1 Taraqqiyot yo‘nalishi; biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish, yo‘nalish. 2 Ma‘lum o‘y-mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy mazmuni, g‘oyasi. Ma‘lumki, 60-70-yillar davomida tarixiy kinolentalar yaratish sohasidagi ijodiy tendensiyalar yanada rivojlantirildi. S.Xo‘jayev, [8, 65].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Lug‘atlarda keltirilgan ma‘lumotlar tahlilidan ma‘lum bo‘ladiki, tamoyil so‘zining lug‘aviy ma‘nosi prinsip so‘zidan tubdan farq qiladi. Tamoyil so‘zining o‘zagida moyillik, intilish, yo‘nalish ma‘nolarini yaqqol anglatuvchi semalar (ma‘nolar) mavjud. Demak tamoyil rus tilidan o‘zlashgan tendensiyaning o‘zbekcha ma‘nodoshi.

Prinsip so‘zini tamoyil bilan almashtirishga bo‘lgan “o‘zboshimcha o‘jar” harakatlar rus tilidan o‘zlashganligi yaqqol sezilib turgan tendensiyaning o‘zbek nutqida yana g‘aliz, notabiiy tarzda, xususan, internet ijtimoiy tarmoqlarida o‘rinsiz faol qo‘llanishiga olib kelmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).Ijtimoiy tarmoqlardan olingan quyidagi matnlarda tendensiya va uning ma‘nodoshi bo‘lgan tamoyil so‘zlarini tahlil qilib, qiyoslaymiz: “Qadimdan mirob degan kasb egalari bo‘lgan. Ularga suvning oxiridan uy berilgan. Chunki mirob suvni to‘g‘ri taqsim qilmasa, suv o‘zigacha yetib kelmaydi. Ya‘ni, o‘sha vaqtda ham suvni tejashga qattiq qaralgan. Lekin zamon zayli bilan bu tendensiya o‘zgardi.” (xabar.uz). Ushbu matnda rus tilidan o‘zlashgan tendensiyaning tamoyil o‘rnida qo‘llanishi matnning umumiy semantikasidagi uyg‘unlikka putur yetkazgan. Chunki “qadimda mirob degan kasb egalari” yashagan davrlarda o‘zbek nutqida tendensiya so‘zi qo‘llanmagan, u vaqtlarda o‘zbeklar tendensiya so‘zi anglatadigan ma‘noni tamoyil so‘zi bilan anglatgan. So‘zimizni isbotlash uchun ushbu matndagi kamchilikni tuzatamiz, ya‘ni

“Almashtir va solishtir usulini” qo‘llagan holda tendensiya so‘zini tamoyil so‘zi bilan almashtiramiz va ikki matnni solishtirib, tahlil qilamiz. Qiyoslang:

Qadimdan mirob degan kasb egalari bo‘lgan. Ularga suvning oxiridan uy berilgan. Chunki mirob suvni to‘g‘ri taqsim qilmasa, suv o‘zigacha yetib kelmaydi. Ya‘ni, o‘sha vaqtda ham suvni tejashga qattiq qaralgan. Lekin zamon zayli bilan bu tamoyil o‘zgardi. Ana endi ushbu matndagi barcha so‘zlar semantikasi matnning umumiy ma‘nosi bilan uyg‘un, mantiqiy-izchil bog‘landi.

Ayrim matnlarda esa tamoyilning qaysi ma‘noda (prinsip ma‘nosidami yoki tendensiya?) qo‘llanganligi noaniq bo‘lib qolmoqda:

“Li Kuan Yuni ayrim ekspertlar “ U faqat o‘z mamlakatini o‘zgartirdi”, deb aytsa, ba‘zilari “Osiyoni”, uchinchi odamlar esa “Butun dunyoni o‘zgartirgan”, deydi... Binobarin u yaratgan tendensiya noyob hodisa, fenomen hisoblanib, “Singapur mo‘jizasi” deb ataladi va bashariyat rivojiga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazgan. Umuman olganda, Li Kuan Yu bularning barchasini birlashtirgan holda Singapurning yutug‘ini ushbu tamoyillar asosida amalga oshirdi: uni yashash va ishlash uchun eng xavfsiz hududga aylantirdi.”

Gazetadan olingan ushbu matnda tamoyil prinsip ma‘nosini anglatayaptimi yoki tendensiya ma‘nosinimi noaniq bo‘lib qolgan.

Tamoyil prinsip ma‘nosini aynan anglati olmasligi sababli ham O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarida *tamoyil* atamasi prinsip ma‘nosida sira ham qo‘llanilmaydi, barcha holatlarda prinsip termini qo‘llaniladi. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi (11-modda).” “4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:” (Ta’lim to‘g‘risidagi qonun)

Prinsip so‘zi asosida yasalgan bir qator so‘zlarni *tamoyil* so‘zi orqali ifodalab bo‘lmaydi. Jumladan, *prinsipial* qarama-qarshilik, *prinsipial* masala, *prinsipial* raqib, rahbarning *prinsipialligi* va ishchanligi; o‘z fikrida mahkam tura olmaydigan *prinsip*siz beburd inson kabi nutqimizda ko‘p uchraydigan so‘z birikmalari va ular ishtirokidagi jumlar, gaplarni *tamoyil* so‘zi bilan ifodalab bo‘lmaydi. Masalan, qiyoslang:

“G‘azo sektoridagi qirg‘inbarot urushga ikki bir-biriga qarama-qarshi prinsipial yondashuv xosdir;

O‘zbekiston terma jamoasi bugun *prinsipial* raqibi Eron terma jamoasiga qarshi to‘p suradi (internet ijtimoiy tarmoqlaridan).”

Ko‘rinadiki, qayd etilgan ushbu *prinsipial*, *prinsipiallik*, *prinsipli*, *prinsipsiz* kabi so‘zlar anglatayotgan ma’no va ma’no noziklarini bugungi kunda *tamoyil* so‘zi bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Gap o‘zbek tilida mazkur tushunchani aynan ifodalay oladigan birlik yo‘qligida emas, tilimizda *prinsip* ma’nosida bemalol qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlar bir qator, masalan *tutum*, *tutruq* (*tuturuq*), *subut*, *burd* kabilar. Bu so‘zlar prinsip o‘rnida ommaviy axborot vositalarida *tamoyil* kabi bilib-bilmay o‘jarlik bilan ko‘p qo‘llanilganda ularning har biri tamoyil so‘ziga nisbatan *prinsip* atamasining ma’nosini qulayroq va to‘laroq ifoda etgan bo‘lar edi.

Gap so‘zning mazmunan o‘z mutanosibiga ega yoki ega emasligida. Xususan, *prinsip* so‘zi o‘rnida kelib chiqishi sof o‘zbekcha bo‘lgan *tutum* so‘zini ishlatish maqsadga muvofiq : prinsipial – tutumi qattiq (qadim o‘zbekcha so‘z yasashdan foydalanib, *qattiqututum* qo‘shma so‘zini ham ishlatga bo‘ladi) prinsipiallik – *qattiqututumlik*, *qat’iy tutumlik*, prinsipli – *tutumli*, prinsipsiz – *tutumsiz*. Qiyoslang: Ahvol juda tang bo‘ldi// *Qattiqututum* jang bo‘ldi.

Prinsip so‘zi o‘zbek tiliga to‘liq, tabiiy ravishda, o‘zbek tili qonun-qoidalariga muvofiq o‘zlashgan emas. Uning “begonaligi”ga o‘zbek tili uchun xos bo‘lmagan, aniqrog‘i tilimiz uchun butunlay yot bo‘lgan ruscha “ts” – harf(tovush)i ham “shama” qilib turibdi. “TS(ц)” harfi sobiq mustabid sovet tuzumining ruslashtirish siyosati o‘laroq o‘zbek tiliga rus-kiril alifbosining qabul qildirilishi munosabati bilan o‘tgan asrning 1940 yilida kiritilgan edi. Rus tilida qanday yozilib (*prinsip*), qanday talaffuz qilinsa (*printsip*) o‘zbek-kiril alifbosida ham xuddi shunday qabul qilingan va hanuzgacha o‘zbek-kiril yozuvida ham, radio-televideniye orqali uzatilayotgan eshittirish va ko‘rsatuvlar nutqida ham shundayligicha qolmoqda.

Ko‘rinadiki, tutum so‘zi prinsip atamasining ma’nosini anglata oladi, lekin prinsip termini bu tutum ma’nosini juda ko‘p hollarda ifoda eta olmaydi. Masalan, Qiyoslang, quyidagi she’riy misralarda (1-misol), ommabop (2-misol) hamda ilmiy uslubga (3-misol) xos matnlarda tutum so‘zining qo‘llanishini:

1) *Tutumlaring* or-nomus, ta’lim, millat, subutlar// Ko‘rmasin seni ojiz millat qurti – manqurtlar (Baxtiyor Doniyorov. Intil xalqqa tilab haq)

2) Xalqimizda azaldan har qanday raqobat halollik *tutumlari* asosida bo‘lishi odatga aylangan. Ming yillik tarixiga ega bo‘lgan milliy sport o‘yinimiz kurash hozirga qadar halollik ramzi hisoblanadi (gazetadan).

3) “Shaybonixon ko‘p jihatlardan Amir Temur *tutumiga* ixlos va rioya bilan qarar, jumladan, saroyga olim va shoirlarni, san’at ahlini to‘plab, ijodga targ‘ib-tashviq etar edi” [6: 17].

Ushbu misollarning birortasida *tutum* so‘zini *prinsip* yoki *tamoyil* so‘zlari bilan almashtirib bo‘lmaydi, aks holda ona tilimiz tabiatiga hamohang yozilgan matn ma’no uyg‘unligiga putur yetkan bo‘lar edi.

O‘zbek tilida rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarni to‘g‘ri yozish va to‘g‘ri talaffuz qilish masalasida og‘riqli, salbiy holatlar hanuz uchrab qolayotgani tashvishlidir. Bu holat tilshunoslikda reduksiya (kuchsiz talaffuz natijasida tovushning miqdor va sifat belgisi jihatidan o‘zgarishi) deb ataladigan hodisa yaqqol mavjud bo‘lgan rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan so‘zlarda ko‘proq uchraydi.

Masalan, Moskva, fonar, demokratiya, konstitutsiya, oktyabr, noyabr, ona (o‘zbek tilidagi ‘u’), vorona kabi so‘zlarning imlosi shu shaklda yozilgani holda, rus tili orfoepiyasi qoidalariga ko‘ra, talaffuzda Moskva-Maskva, fonar-fanar, demokratiya-dimokratiya, kontitutsiya-kanstitutsiya, oktyabr-aktyabr, noyabr-nayabr, ona-ana, vorona-varona tarzida talaffuz etiladi. Rus tilining tabiatiga xos bo‘lgan so‘zlarning yozuvi va talaffuzidagi ushbu tafovutlar o‘zbek tili tabiatiga mutlaqo yot. Masalan, adabiy tilimizdagi *ota, ona, bola, opa, aka, uka, olma, oydin, oqshom* kabi qon-qonimizga singib ketgan ko‘pdan-ko‘p so‘zlar qanday yozilsa, shunday talaffuz etiladi. Bizningcha, har qanday o‘zga tildan o‘zlashgan so‘z faqat o‘zbek tili fonetikasi va grammatik qoidalariga asosan

ogʻzaki va yozma nutqqa singishi lozim. Shunda u xalqimizning qadimiy va boy maʼnaviyatiga hamohang boʻladi. Qolaversa, milliy hamiyatiga putur yetmaydi. Shu oʻrinda inglizlarning *Moscow* yozib, *Moscow* deb oʻz til qonun-qoidalariga koʻra talaffuz etishlarini yoki *Russia* soʻzini *Rashe* tarzida ifodalashini keltirib oʻtish joiz.

Taassufki, bugun televideniye va radioda ham ayrim jurnalistlarimiz nutqida rus tilidan oʻzlashgan baynalminal soʻzlarni oʻzbek tili qoidalariga zid ravishda istifoda etishdek salbiy holatlar koʻplab uchramoqda. Ular bu xatoni bilib-bilmagan holda, baʼzida “madaniyatlik” belgisi deb tushunayotganliklari gʻoyat achinarli. taʼkidlash joizki, baʼzi hollarda ona tilimizda mos keluvchi muqobili boʻla turib, nonushta, tushlik, kechlik kabi nutqda koʻp qoʻllaniladigan kundalik soʻzlarning oʻrniga kattalar, hatto yosh bolalarimiz zavtrk (zavtrak), abit (obed), ujn (ujin) kabi soʻzlarni nutqda ishlatib, ularni til qoidalariga zid ravishda qoʻllashni odatga aylantirayotganiga ham yuqoridagi kabi notoʻgʻri shakllangan tushunchalar sabab, desak xato qilmaymiz. Xolbuki, «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da keltirilganidek: *KECHLIK* kechki ovqat [9, 362].

Abdulla Qodiriyning bebaho asaridan misol keltirilgan:

“Ular masjiddan shomni oʻqib kimgach, ichkaridan Oybodoq **kechlik** olib chiqdi. (Abdulla Qodiriy, Oʻtgan kunlar»)[9, 362].

Kamina tomonidan ishlab chiqilgan jamlanma metodikaning [3; 2; 1, 9-23] “*Almashtir va solishtir*” metodik usulini qoʻllagan holda yuqorida mashhur badiiy asar matnidan misol tariqasida keltirilgan lavhadagi sof oʻzbekcha kechlik soʻzi oʻrnida ruscha ujin soʻzini qoʻllab koʻring-a, qanchalik bemani va achchiq kulgili lisoniy-ruhiy holatni boshdan kechirasiz: Ular masjiddan shomni oʻqib kimgach, ichkaridan Oybodoq *ujin* olib chiqdi.

Xavotirlisi, koʻpchilik millatdoshlarimiz oʻz kundalik soʻzlashuv nutqlarida boʻlar-boʻlmasga ruscha soʻzlarni shunga oʻxshab nooʻrin qoʻllab, hatto bunga shunchalik koʻnikib ketishganki, ayrim hollarda bemaʼni va masxarali vaziyatga tushayotganliklarini sezmaydilar ham.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tilshunoslikda tilning sistema ekanligi XIX asrdayoq ilmiy isbotlangan. Sistemalilik qonuniyatiga koʻra, mavjud har

qanday sistema ichida unga yot bo'lgan boshqa bir sistema faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Sodda va lo'nda qilib aytganda, o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'z ona tilimizning qonuniyatlariga moslashishi shart. Masalan, non, osmon, maktab, qalam, tabib, daftar, kitob kabi arab va fors tillaridan qadim zamonlarda o'zlashgan bir qator so'zlar o'zbek tili imlosi va talaffuz qoidalariga to'liq bo'ysunib, tilimizning o'z qatlamiga singib ketib, bebaho lug'at boyligiga aylangan.

Ushbu maqola muallifi tomonidan rus (rus tili orqali ingliz) tilshunosligi hamda o'zbek tilshunosligi, xususan, leksikologiya, semasiologiya va stilistika sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan foydalanib, leksik sinonimlarni kompleks tadqiq etishning jamlanma metodikasi ishlab chiqilgan [2; 3].

Ushbu original metodika asosida turkologiya, jumladan, o'zbek tilshunosligida nominativ birliklar semantikasining konnotativ aspekti har tomonloma kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, so'zning leksik-semantik ma'nosi uni o'rab turgan leksik qurshov va kontekst semantikasiga bog'liqligi ilmiy nazariy asoslab va amaliy isbotlab berilgan [2: 70-91].

Globalashuv asri deb nom olgan XXI asrda, hayot sur'atlari benihoya tezlashgan davrda vaqtni tejashning ham katta ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Rus tilidan o'zlashgan baynalminal so'zlarning o'zbek tilidagi muqobili masalasida mulohazatalab o'rinlar ijtimoiy-foydali mehnat bilan band har bir kishini o'yga toldiradi. Biz shu kabi bir qarashda jo'n, ammo o'ta nozik muammoga har kun duch kelib, masalaga uzil-kesil yechim topa olmay, vaqtni boy berayotganimiz bu muammoning hamon dolzarbligicha qolishiga sabab bo'lmoqda. (Vaholanki, muammoning yechimi bo'yicha takliflar Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, muntazam ravishda jamoatchilikka taqdim etib borilmoqda) [1; 2; 3; 4; 5; 6; va b.]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Данияров Б. Х. Принципы и приёмы оригинальной методики обучения русскому языку взрослых //Преподавание языка и литературы. – 2021. – №. 7. – С. 70-73.

2. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи //Монография. Тошкент:“Сано стандарт. – 2019. – С. 171.
3. Данияров Б. Х. Проблемы лексической синонимии узбекского языка: Коннотативный аспект семантики номинативных единиц //Москва: Институт языкознания РАН. – 1994. – С. 80.
4. Данияров, Б. Х. "Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография." *Ташкент: Издательство Bookmany print* (2022).
5. Ikromjon Habibjonov, Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq masalalari, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 2, Issue 4 / December, 2021. ISSN: 2181-063X.
6. Xanifa Jurayeva, I.Habibjonov, Namanganda tug‘ilmagan namanganlik (Sunnatulla Anorboyev tavalludining 100 yilligiga), “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 3, Issue 4 / December, 2022. ISSN: 2181-063X.
7. Ikromjon Toshpo‘lat o‘g‘li Habibjonov, Sovet ittifoqining soliq-bojxona tizimiga bo‘lgan munosabati, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 3, Issue 3 / September, 2022. ISSN: 2181-063X.
8. Xanifa Jurayeva, I.Habibjonov, Andersen asarlarida tarbiya motivi, “World of Philology” Scientific Journal / Volume 2, Issue 1 / March 2023. ISSN 2181-3630.
9. Икромжон Тошпўлат ўғли Ҳабибжонов, Солиқ-божхона терминологиясида дублетлик ва уни тартибга солиш масалалари, «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\\\ Volume: 1, ISSUE: 6.
10. Nasriyeva D. Tilshunoslikda diskurs va matn talqini //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.3. – С. 307-309.
11. Nasriyeva Dilnoza, National-mental factors in the artistic discourse of isajon sultan (on the example of the novel “geneticist”), European journal of literature and linguistics, 2023. – P. 53-56.

12. Dilnoza Nasriyeva, Isajon Sulton badiiy diskursining milliy-mental xususiyatlari, Filologiya masalalari–yosh tadqiqotchilar nigohida, Vol. 1 No. 1 (2023).
13. Dilnoza Muhiddinovna Nasriyeva, Isajon Sulton asarlarida pretsedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida, FarDU ilmiy xabarlari, 25.08.2022.
14. Ubayevna R.H. Features of interaction between preschool children //Shokh library. – 2025.
15. X.U.Rizayeva, Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024, №8.
16. Rizaeva Xusniya Ubayevna, Batareykalar va ularning bola hayotidagi salbiy ta’siri, Лучшие интеллектуальные исследования, 2023/10/20, – В. 83-88.
17. Rizayeva Husnia Ubayevna, Features of interaction between preschool children, International Multidisciplinary Journal for Research & Development, Vol. 12 No. 01 (2025).
18. Urazbaevna N. R. Development of Creative Abilities of Future Preschool Teachers //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 4. – №. 4. – C. 174-175.
19. Nurjanova R. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida maxsus kompetensiyalarni shakllantirish //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 9. – C. 449-452.
20. Urazbaevna N. R. Methodology of forming self-assessment skills in educators of school educational organizations //Confrencea. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 375-378.
20. Urazbaevna, Nurzhanova R. "Development of Creative Abilities of Future Preschool Teachers." *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, vol. 4, no. 4, 26 Apr. 2023, pp. 174-175.
21. Uljon Boboqulova, The artistic interpretation of historical female images in abdulla oripov’s poetry, Navigating challenges and opportunities in a changing world, 2025-07-25.

22. Uljon Boboqulova, Reflection of the lyrical hero's personality in Abdulla Oripov's poems on the theme of mother, American Journal Of Philological Sciences (ISSN – 2771-2273), 2025/5/16.
23. Uljon Boboqulova, Ona obrazida lirik fojelikning aks etishi, Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2025/5/4.
24. Uljon Boboqulova, Qizlar madhi. Ikki shoir talqinida, Til va adabiyot.uz, 2025/3.